**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**MADANIYAT VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI**
**BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN’ATI INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti rektori**

**_______________ A.Mansurov**

**2024 yil “30” avgust**

***Ro‘yxatga olindi: № MD 70211401-1.04***

# XONANDALIK ANSAMBLI SAN’ATI

# FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **200 000 - San’at va gumanitar fanlar** |
| **Ta’lim sohasi:** | **210 000 - San’at** |
| **Mutaxassislik:** | **70211401– Vokal san’ati: estrada xonandaligi** |

**TOSHKENT – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>XAS1206</td><td>O'quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>3-4</td><td colspan="2">ECTS-Kreditlar<br>6</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta'lim tili<br>O'zbek/rus</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>2-4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td>Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta'lim (soat)</td><td colspan="2">Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td>Xonandalik ansambli san'ati</td><td>90</td><td>90</td><td colspan="2">180</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="5">
I. Fanning mazmuni<br><br>
Xonandalik ansambli san'ati fani magistratura mutaxassisligi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan. Dastur Malaka talablariga binoan san'at sohasida magistrlar tayyorlash o'quv rejalari asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda foydalaniladi.<br>
Xonandalik ansambli san'ati fani – Mutaxassislik fani bilan uzviy bog'liq va ulardan olingan bilimlarni ma'lum darajada to'ldirishga xizmat qiladi. Uslubiy jihatdan ketma-ketlikda o'tiladi va ulardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.<br>
Fanni o'qitishdan maqsad estrada xonandaligida ansambl (duet, trio, kvartet) sifatida ijro etish mahoratiga ega bo'lishdir.<br>
Fanning asosiy vazifasi – ansambllarni tuzish va ular bilan ishlash ko'nikmalarini mukammallashtirish, turli tarkibdagi ansambl guruhlarini: bir xil (ayollar yoki erkaklar), aralash guruhlar (ayollar va erkaklar), vokal-cholg'u guruhlari bilan ishlashdan, ustozlardan shogirdlarga o'tib kelayotgan xonandalikdagi ansambl bo'lib ijro etish ko'nikmalarini o'zlashtirishdan iboratdir.<br>
Xonandalik ansambli san'ati fani ishchi o'quv rejasida ko'rsatilgan semestrlarda o'qitiladi. Badiiy jamoalarda, ya'ni ansambl tomonidan ijro etiladigan asarlarni o'rgangan bilimlari, ko'nikmalariga asoslangan holda turli cholg'ularda ijro talqini tayyorlanadi. Tinglash yoki ijro jarayonida mazkur asarlardagi kamchilik va yutuqlarni o'rganish, tahlil qilish ijodiy faoliyatning ajralmas bo'g'inidir.
</td></tr>
</table>

## II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)
## II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

### III-IV-SEMESTRLAR
### Kirish

"Xonandalik ansambli san'ati" – fanning mazmuni, tushunchasi, asosiy ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar, ulardan unumli foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar.

### 1-mavzu. Ansamblda ovoz sozlash

Ansamblda ovoz mashqlari. Unison mashqlar, tersiya, kvarta, kvinta, oktava intervallari mashqlari. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish mashqlari.

### 2-mavzu. Sof intonatsiya ustida ishlash

Sof intonatsiya ustida ishlash. Vokal nafas olish texnikasini egallash. Ansambl ijrosida gorizontal va vertikal garmonik tuzilmani korrektirovkasi va sof intonatsion ijro.

### 3-mavzu. Badiiy estrada asarlarini o'rganish

Estrada va jaz vokal ansambllari san'atining ilmiy asoslari. Badiiy estrada asarlarini o'rganish uslublari. Rivojlangan texnik ijroda stilistik vokal usullari va ijro texnikasi (sket, bluy-odl, subton, drayv, qochirim va nola).

### 4-mavzu. Ansamblda tovushning erkin filirovkasi

Ansamblda tovushning erkin filirovkasi. Ijroda badiiy ifoda va artistizm. Ansamblda tovush filirovkasi va vibratto uslubini egallash.

### 5-mavzu. Ansambl turlarini tuzish va ishlash

Bek-vokal, duet, trio, kvartet tarkibidagi ijro xususiyatlari. Chet tillardagi asarlarda sof talaffuz.

**6-mavzu. Badiiy professional ijro**

Badiiy professional ijro. Artistik mahorat. Ansambldagi usul va sof intonatsiya. Asarlarning zamonaviy yo'nalishidagi stilistik ijrolar. Ijrodagi badiiy obraz. Mikrofonni erkin ishlatish. Zamonaviy asarlarni ijodiy talqini.

**7-mavzu. Ovoz imkoniyatlari**

Zamonaviy vokal-texnik priyomlarini egallash (jaz sket, bluy-odl, subton, drayv, qochirim va nola).

**8-mavzu. Artistik mahorati**

Artistik mahorat ustida ishlash (sinxron va individual kuylash). Shaxsiy ijro etish uslubini ishlab chiqish. Estrada xonandaligi sohasida zamonaviy stilistik yo'nalishlaridagi murakkab asarlar. Estrada va jaz asarlarining ijro uslublari talqini.

**9-mavzu. Chet el kompozitorlarining estrada-jaz asarlari**

G'arbiy Yevropa va AQSh kompozitorlarining estrada-jaz asarlarini tanlash va ishlash.

**10-mavzu. Rossiya kompozitorlarning estrada-jaz vokal asarlari**

Repertuar tanlash. Ijrochining musiqiy qobiliyati, musiqiy bilim doirasi, ijrochilik imkoniyatlari darajasi. Nota matni bilan ishlash va boshqa tonallikga transpozitsiya qilish. Jo'rnavoz, cholg'u ansambli va fonogrmma minus jo'rligida ishlash usullari. Texnik-ijrochilik vositalaridan unumli foydalanish.

**11-mavzu. Vatanparvarlik ruhidagi asarlar talqini**

O'zbekiston kompozitorlari tomonidan yaratilgan zamonaviy Vatanparvarlik ruhidagi asarlar. O'zbek estrada yulduzlari dasturidagi turli janr va yo'nalishlardagi asarlar talqini. Yakkaxon ijro dasturiga amaliy tayyorgarlik.

**12-mavzu. Zamonaviy yo'nalishdagi stilistik ifodalar. Jaz yo'nalishidagi asarlar talqini**

Estrada xonandaligi sohasida Jaz yo'nalishidagi asarlar ijrosi. O'zbek va jahon kompozitorlarining jaz asarlari. Taniqli asarlarning ijro uslublari, talqini. Improvizatsiya texnikasini rivojlantirish. Mikrofon bilan ishlash texnikasi.

**13-mavzu Ijro mahorati ustida ishlash**

Ijro mahoratini oshirish. Zamonaviy kompozitorlar asarlarini tahlil qilish, jaz ijro usullarini o‘zlashtirish. Murakkab stilistik yo‘nalishlarni egallash. Zamonaviy vokal-texnik uslublarni egallash. Jaz sket, bluy-odl, subton, drayv, qochirma va nola. Soul yo‘nalishini egallash. Manerali ijro. Sahna madaniyati. Jo‘rnavoz bilan repetitsion ishlash. Ijrodagi badiiy obraz va artistizm. Asar dramaturgiyasini ifoda etish. Sahna mahorati. Jo‘rnavoz bilan repetitsion ishlash.

**14-15-mavzu. Ijro dasturlarini tuzish**

Jahon va O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan yaratilgan turli janr va yo‘nalishlardagi asarlardan ijro dasturini tuzish. Konsertlar, attestatsiyalar dasturiga kiritish. Ilmiy-ijodiy yo‘nalishda tadqiqiy faoliyat olib borish. Yakkaxon ijro dasturiga amaliy tayyorgarlik ko‘rish.

**Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat.**

Har semestrda o‘zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi.

2 ta estrada asarlari vokal ansambl tarkibida ijro etilishi shart:

1-ta O‘zbekiston kompozitorlarining Vatanparvarlik ruhidagi asari; Improvizatsiya elementlari mavjud bo‘lgan jaz asari; yoki O‘zbekiston kompozitorining yangi original qo‘shig‘i (yoki oxirgi 5 yilda yaratilgan qo‘shiq);

1-ta jahon estrada va jaz yulduzlarining turli stilistik yo‘nalishidagi zamonaviy asari (original tillarda).

**Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Xonandalik ansambli san’ati fani bo‘yicha o‘rganilgan bilimlar amaliy mashg‘ulotlarda amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab boriladi. Xususan, har bir asar ijrosida biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta’sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko‘rish yaxshi natija beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko‘rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o‘z ijodiy (yoki ijro) yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o'rganish vazifalari ham qo'yiladi.

## III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

## IV.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ansamblda kuylash mahoratini rivojlantirish ustida ishlash.
2. Ovoz sozlash tovushning erkin flirovkasi ustida ishlash.
3. Musiqiy asarlarni yuqori darajada ijro etishda murakkab zamonaviy ijro yo'nalishlaridan foydalanish.
4. Murakkab asarlarni o'rganib yuqori natijalarga erishish.
5. O'zbek va jahon kompozitorlari tomonidan yaratilgan ikki xil xarakterli asar ustida ishlash.
6. Ijrochilik texnikasini rivojlantirish ustida ishlash.

| | |
|---|---|
| | 7. Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o'rganish. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllangan kompetensiyalari)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>– estrada va jaz vokal san'atining ilmiy asoslari;<br>– ansambl turlari;<br>– zamonaviy estrada xonandasining asosiy ijro dasturi;<br>– O'zbekiston, jahon jaz va estrada musiqasi tarixi, estrada va jaz musiqasining turli uslub va yo'nalishlari;<br>– estrada vokal ijrochilik san'ati va musiqiy ta'lim sohalaridagi zamonaviy yutuqlar;<br>– improvizatsiya texnikasi va ijrosining ijodiy jarayoni;<br>–sahna madaniyatini haqida tasavvurga ega bo'lishi;<br>–jaz va estrada musiqasi stilistik yo'nalishlarini;<br>–estrada vokal musiqasi ifoda vositalarining interpretatsiya qonunlarini;<br>–MDH, AQSh va Yevropa davlatlari estrada va jaz yulduzlarining retro va zamonaviy estrada-jaz vokal ansambl asarlarini;<br>–musiqiy asarlarni ilmiy tahlil qilish, kasbiy muammolarni anglash va ularni bartaraf etishning yo'llarini topishni;<br>- gorizantal va vertikal garmonik tuzilmani tahlil qilishni;<br>–jo'rnavoz, cholg'u ansamblari bilan ishlashni;<br>–ovozning texnik va ifoda vositalarining majmuasini;<br>– yangi ovoz kuchaytirish texnik vositalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;<br>– ijro asarining xususiy interpretatsiyasini yaratish;<br>–asar ijrosida ovoz kengligi, rivojlangan ovoz va nafas texnikasi, "soul" yo'nalishi ifodasi, musiqiy va artistik mahoratga erishish;<br>–mohir jaz va estrada yulduzlarining ijro transkriptsiyalarini;<br>–ijrodagi stilistik vokal usullari va ijro texnikasi (nola, qochirim, stakkato, subton, groul, filirovka, vibrato, sket, blyuz effektlari)ni amalda erkin qo'llash;<br>–nota materiali, ilmiy-pedagogik va ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan ishlash;<br>–ko'p ovozlik ansambl asarlarini notaga qarab sof kuylash;<br>–turli ansambl va guruhlar bilan yakka va bek-vokal tarkibida mustaqil ijodiy ishlash; |

| | |
|---|---|
| | –jo'rnavoz, cholg'u va vokal ansambllari bilan ishlash;<br>–estrada ansambl va bekvokal jamoasi ishini tashkillashtirish;<br>–studiyalarda ovoz yozish;<br>- kasbiy faoliyatida yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;<br>- estrada san'at sohasidagi yangi texnologiyalar va dasturlarni qo'llash;<br>- ijrochilik ko'nikma va imkoniyatlarini kengaytirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br><br>• interfaol keys-stadilar;<br>• blits-so'rov, Klaster, Sinkveyn, T-sxema;<br>• guruh tarzda repetitsiyali ish;<br>• konsertlarga tayyorgarlik;<br>• sahnada ijro etish;<br>• guruhli loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br><br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, estrada xonandaligi ansambli asarini to'g'ri ijro etish, vokal ijro ko'nikmalarini egallash; o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat estrada xonandaligi ansambli ijro dasturini topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br><br>1. R.Islamova. "Iskusstvo vokalnogo ansamblya" 1-qism. OTM uchun o'quv qo'llanma. - T.: "Fan ziyosi", 2022. – 215 bet.<br>2. R.Islamova. O rasshirenii oblasti ispolzovaniya interaktivnix metodov i innovatsionnix obrazovatelnix texnologiy v distsipline "Iskusstvo vokalnogo ansamblya". Magistratura. 1-2 kurs. Magistratura uchun o'quv qo'llanma. – T.: "San'at", 2012. – 44 bet.<br>3. Islamova Ruslana. Estradniy vokalniy ansambl. Bakalavriat uchun darslik. - T.: "Musiqa", 2018. – 268 bet.<br>4. Islamova R. Vokalniy ansambl. O'quv qo'llanma. - T.: "O'zDK", 2008. – 131 bet.<br>5. D.Omonullayeva. Estrada xonandaligi. O'quv qo'llanma. - T.: "O'zDK", |

| | |
|---|---|
| | 2007. – 110 bet.<br>6. Saidova Sh.U. Estrada qo'shiqlari va vokal ansambllar (xorijiy myuzikllar materiallari asosida). Bakalavrlar uchun uslubiy qo'llanma. – T.: "O'zDK" 2010. – 136 bet.<br>7. D.Amanullayeva. Estrada xonandaligi. O'quv qo'llanma. - T.: "Musiqa", 2015. – 228 bet.<br>8. M.O'rinboyeva. Estrada qo'shiqlari 1 qism. O'quv qo'llanma. - T.: "O'zDK", 2010. – 126 bet.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br><br>1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", T., 2017. - 488 bet.<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF 60-son 28.01.2022 yil.<br>3. D.Amanullayeva. Estrada xonandaligi. Magistratura uchun darslik. – Toshkent, 2016.<br>4. M.O'rinboyeva. Estrada qo'shiqlari 2 qism. O'quv qo'llanma. - T.: "O'zDK", 2010. – 120 bet.<br>5. Yu.Turayev. XX asr O'zbek estrada qo'shiqlari. O'quv qo'llanma. T.: "Musiqa", 2015. – 468 bet.<br>6. G.Zokirova. Eng gullagan yoshlik chog'imda. T., 2011.<br><br>**Axborot manbaalari**<br><br>1. http://estrada-art.uz<br>2. http://www.konservatoriya.uz/faculty_estrada.htm<br>3. http://library.konservatoriya.uz/<br>4. http://www.shou-biznes.uz<br>5. http://www.showbiz.ru<br>6. http://ru.m.wikipedia.org |
| 7. | Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislilari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil "30" avgust -dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>R.R.Islamova – O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati |

| | |
|---|---|
| | instituti "Estrada xonandaligi" kafedrasi professori. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>1. D.D.Amanullayeva - O'zR san'at arbobi, O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti "Estrada xonandaligi" kafedrasi mudiri, professor;<br><br>2. R.A.Abdullayev – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, professor. |